DOI10.5281/zenodo.8402510

MAJIDOV FAXRIDDIN ABDURAZZOK O‘G‘Li
“University of business and science” nodavlat oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

ABDUG‘ANIYEV MURODJON SHAVKAT O'G'LI
“University of business and science” nodavlat oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

AHOLI TURMUSH DARAJASINI BAHOLASHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI

Har qanday mamlakat o’zining ijtimoiy va siyosiy harakatlarini amaliyotga tadbiq etishdan ko’zlagan maqsadi xalq manfaatlari, ya’ni aholi turmush darajasini yaxshilash orqali yetakchi mamlakatlar safidan joy olishga qaratiladi.

Aholi turmush darajasi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir. Uni oshirib borish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadidir. «Turmush darajasi» tushunchasi zamonaviy talqinda inson faoliyatining barcha tomonlariga taalluqli bo‘lgan keng qamrovli tushunchadir, ushbu jihatlar jam bo‘lib, umuman jamiyat va xususan, uning ayrim a’zolarining farovonligi to‘g‘risida tasavvur beradi.

Turmush darajasi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne’matlar va xizmatlar bilan ta’minlanganlik hamda ularni iste’mol qilish darajasi tushuniladi. Aholi turmush darajasini insonlarning jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlarining rivojlanishi hamda ularni qondirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy mezon sifatida tushunish mumkin.

“Turmush darajasi” tushunchasi va ijtimoiy-iqtisodiy ko’rsatkichlar tizimini rivojlantirishda BMTning katta hissasi mavjud. BMT ishchi guruhi tomonidan global miqyosda 1960 yilda turmush darajasini aniqlash va baholash tamoyillari to’g’risida hisobot tayyorlangan va bu turmush darajasining keng qamrovli tizimini yaratish yo’lidagi dastlabki harakat hisoblanadi. BMT mutaxassislari olib borgan tadqiqotlarga qo’shimcha ravishda ayrim olimlarning ham aholi turmush darajasini aniqlash va baholash bo’yicha aniq tizimlarni ishlab chiqish yuzasidan amalga oshirgan ko’plab ishlarini keltirish mumkin.

Bu sohada tadqiqotlar ilk bor ingliz olimi U.Petti (1623-1687) ishlarida namoyon bo’la boshlagan. Shuningdek, F.Kene (1694-1774) aholi turmush darajasini oshirishning haqiqiy manbalarini baholashga harakat qilgan. A.Smit (1723-1790) ishchilar orasida qashshoqlikning ortishidan xavotirga tushib, aholi farovonligini oshirish istagi tabiiy hol ekanligini ta’kidlagan. J.M.Keyns (1883-1946) va A.Marshall (1842-1924)[1] turmush darajasini yaxshilash uchun qulay moliyaviy shart-sharoitlarni shakllantirish nazariyasi rivojiga salmoqli hissa qo’shishgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan G’arb olimlarining turmush darajasini baholashdagi qarashlarida siyosiy-iqtisodiy jihatdan iqtisodiy-statistik nuqtai nazarga tomon siljishni kuzatish mumkin. Bu vaqtga kelib tadqiqotchilar, asosan, ishlovchilarning real turmush darajasi va haqiqiy iste’moli bo’yicha tahliliy ishlarni olib borishgan.

Keyinchalik esa turmush darajasini o’rganishda aholining turli qatlamlari manfaatlarini uyg’unlashtirish, ular o’rtasidagi har xil qarama-qarshiliklarni yumshatish, asossiz daromadlar bo’yicha tabaqalanishga chek qo’yish va qashshoqlikni bartaraf etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. G’arb olimlarining bu boradagi muvaffaqiyati ularning turmush darajasi o’rtacha parametrlarini baholashda differensial yondashuvni

[1] Smit A. “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari haqidagi tadqiqotlar” Mayburd E.M. tarjimasi, 1993, -152 b.; Sey J.B. Siyosiy iqtisod bo'yicha risola, Tarjima, 2000.; Marshall A. Iqtisodiyot fanining tamoyillari,Tarjima -M., 1993. V.1, -311 b.; Shumpeter J, Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi,Tarjima, Avtonomova V.S. va boshq. -M., 1982; Keyns J.M. Foiz va pul bandligining umumiy nazariyasi, Tarjima, - M., 1978, - 576 b.

https://wordlyknowledge.uz

qo’llaganliklaridadir. Bu esa aholining ayrim qatlamlari ehtiyojlarini qondirish jarayonida iqtisodiy imkoniyatlarni to’g’ri taqsimlash nuqtai nazaridan juda muhim hisoblanadi.[2]

Bugungi kunda BMT tomonidan dunyo aholisi turmush darajasini oshirish va kambag’allikdan aziyat chekayotgan mamlakatlarga ko’maklashish bilan bog’liq masalalar hal qilinmoqda. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2000 va 2015 yilda qabul qilingan “Ming yillik taraqqiyot” dasturi hamda “2030 yilgacha mo’ljallangan barqaror rivojlanish maqsadlari” dasturi bevosita dunyo mamlakatlari aholisini iqtisodiy-ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, shuningdek, ekologiya buzilishining oldini olgan holda aholining salomatligini asrashga qaratilgan muhim ishlar sirasiga kiradi.

Aholi turmush darajasini ifodalash uchun «turmush darajasi», «xalq farovonligi», «turmush faoliyati xavfsizligi», «turmush tarzi», «mehnat faoliyati sifati», «turmush sifati» kabi turli xil tushunchalar qo‘llaniladi. Ba’zan turli atamalar bir mazmunni anglatsa, boshqa hollarda ular o‘rtasidagi farq muayyan xarakter kasb etadi, mazmuni sezilarli darajada farq qiladi. Shu bilan birga, mazkur tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligini qayd etish lozim.


O’zbek tilining izohli lug’atida farovon atamasiga – “mo’l, juda ko’p, ortiq, ziyoda, har jihatdan to’la-to’kis ta’minlangan, hamma narsasi mo’l-ko’l”[3] kabi izohli ta’rif berilgan. Jumladan, A.O’lmasov va A.Vaxabovlar: “Farovonlik – bu kishilar iste’mol etadigan hayotiy ne’matlar miqdori va sifati, hayot kechirish umumiy shart – sharoitining qandayligini bildiradi”[4] deb, uqtiradi. Umuman olganda, farovonlik deganda, aholining yashashi uchun zarur bo’lgan moddiy va ma’naviy ne’matlarning mavjudligi hamda u bilan bog’liq bo’lgan tadbirlar majmui tushuniladi.

“Aholi farovonligi” tushunchasi zamonaviy talqinda inson faoliyatining barcha tomonlariga taalluqli bo’lgan keng qamrovli tushunchadir. Aholi farovonligi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne’matlar va xizmatlar bilan ta’minlanganlik hamda ularni iste’mol qilish darajasi tushuniladi.

Aholining farovonlik darajasini ifodalash uchun “turmush darajasi”, “xalq farovonligi” va boshqa shu kabi turli xil tushunchalar qo’llaniladi. O‘zbekistonda aholining moddiy, ma’naviy, ijtimoiy ehtiyojlarining qondirilish darajasini ifodalaydigan «turmush darajasi» atamasi kengroq qo’llaniladi. Bunday tavsif ko’proq turmush darajasi statistikasini xarakterlaydi (1.1-rasmga qarang). Shu bilan birga turmush darajasi - ko’plab omillar yig’indisi ta’sirida bo’lgan o’zgaruvchan jarayondir. Bir tomondan turmush darajasi muntazam o’zgarib turadigan turli ne’matlarga bo’lgan ehtiyojlarning tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan u ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, mehnatkashlarning ish haqi bilan belgilanadi. Ammo ish haqi miqdori ham, turmush darajasi ham ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohalari samaradorligining ko’lami, ilmiy-texnik taraqqiyot (ITT) darajasi, aholining madaniy-ma’rifiy saviyasi va tarkibi, milliy xususiyatlar, siyosiy hokimiyat, tabiiy shart-sharoitlar va yana ko’plab boshqa omillarga bog’liq bo’lishi mumkin.

[2] Baxriddinova D.F. “Qishloq joylarda aholi turmush farovonligini yaxshilash va bandligini ta’minlash yo’llari (Samarqand viloyati misolida)”, Magistrlik ishi, Samarqand 2020, 11-bet
[3] http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20F.pdf
[4] O’lmasov A, Vaxabov A.Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik, T.: SHarq 2006 – 432 bet.

https://wordlyknowledge.uz



1.1-rasm. Aholi ehtiyojlari va turmush darajasiga ta'sir etuvchi omillar

Shuningdek, aholining turmush darajasini tavsiflovchi boshqa atamalar va tushunchalar mavjud. Aholi turmush darajasining eng mufassal talqini quyidagicha: aholi turmush darajasi – bu jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ularni qondirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi umumiy ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir.[5] Bunday talqin aholi farovonligi darajasining sifat va miqdor ko'rsatkichlarini yanada to'liqroq ifodalashga imkon yaratadi.

Aholi farovonligi kontseptsiyasi tamoyillar va ko'rsatkichlar tizimiga asoslanuvchi, aholining farovonlik darajasini oshirishga qaratilgan g'oyani ifodalaydi. Aholi farovonligi darajasining kontseptsiyasi ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirish strategiyasi va yo'nalishlari, bosqichlarini belgilab beradi. Bozor munosabatlariga o'tish davrida O'zbekistonda yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga javob beradigan aholi farovonligi darajasi kontseptsiyasini yaratishga zarurat tug'ildi.

Mazkur kontseptsiyani shakllantirishda so'nggi yillarda jahon amaliyotida keng qo'llanilayotgan "turmush sifati" kontseptsiyasining ayrim qoidalaridan foydalanish mumkin. Tarixan ushbu kontseptsiya aholi hayot faoliyatining iqtisodiy parametrlarini aks ettiruvchi "global ish bilan bandlik", "turmush darajasi" kabi kontseptsiyalarning rivojlanishi asosida yuzaga kelgan. Bu kontseptsiya inson jamoalarining jismoniy, aqliy va ijtimoiy barkamolligini belgilovchi shartlarni shakllantiradi. Bu yerda gap faqat turmush sifatini baholovchi ob'ektiv omillar, ya'ni ovqatlanish, uy-joy, ish bilan bandlik, ta'lim darajasi haqidagina emas, balki aholi tomonidan o'zining farovonligi, baxt, qoniqish, rohat kabi tushunchalarni sub'ektiv his etish to'g'risida ham boradi.

Shunday qilib, turmush sifati kontseptsiyasi insonning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarini ham o'z ichiga oladi. Bu munosabatlar ehtiyojlarning qondirilganligi va


[5] G'oyibnazarov B.K. Aholi turumush darajasini statistik baholash. Toshkent "Fan" nashriyoti, 2005 yil, — b-12.

https://wordlyknowledge.uz

mavjud imkoniyatlarni kutilgan imkoniyatlarga mosligi darajasini xarakterlaydi. Farovonlik darajasi aholi hayot faoliyatining ma'lum bir qirrasi to'g'risida tasavvur beradigan ko'rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi.

Ehtiyojlarni qondirish darajasiga ko'ra, turmush darajasini 4 guruhga bo'lish mumkin:

- o'ta boy turmush darajasi – insonning jismoniy va aqliy kuch-quvvatini to'la tiklash uchun keragidan ortiq qulay sharoitlar bilan ta'minlangan, hashamat va isrofgarchilikni kelib chiqishiga moyillik yaratgan holda ne'matlardan foydalanish;
- boy turmush darajasi – insonning jismoniy va aqliy kuch-quvvatini to'la tiklash uchun qulay sharoitlarni ta'minlaydigan ne'matlardan foydalanish;
- normal daraja – insonning jismoniy va aqliy kuch-quvvatini to'la tiklash uchun qulay sharoitlarni ta'minlaydigan ilmiy asoslangan me'yorlar bo'yicha oqilona foydalanish
- kambag'allik – mehnat uchun resurslarni qayta yaratishning quyi chegarasi sifatidagi ish qobiliyatini saqlash darajasida ne'matlarni iste'mol qilish;
- qashshoqlik – foydalanilishi insonning yashash qobiliyatini saqlash imkoniyatinigina beradigan ne'matlar va xizmatlarning biologik me'zonlar bo'yicha yo'l qo'yiladigan minimal turlarini iste'mol qilish.



1.2.1-rasm.

1.2.2-rasm.

1.2.1-rasm.
Ehtiyojlarning qondirilishiga ko'ra turmush darajalari va ularning umumiy aholi sonidagi ulushi

1.2.2-rasm.
Turmush darajasiga mos ravishda daromadlarning taqsimlanishi

Manba: Muallifning ilmiy izlanishlari asosida shakllangan shaxsiy munosabati

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) konventsiyalariga muvofiq, har bir inson o'zi va oilasining salomatligi va farovonligini ta'minlovchi turmush darajasiga (oziq-ovqat, kiyim-bosh, uy-joy, tibbiy parvarish, ijtimoiy xizmatlar), shuningdek, ishsizlik, nogironlik, bevalik holatlarida ta'minot olish huquqiga ega. Barcha huquqlar milliy kontseptsiyalar asosida amalga oshiriladi.

Turmush darajasi kontseptsiyasi tamoyillar va ko'rsatkichlar tizimiga asoslanuvchi, aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan g'oyani ifodalaydi. Turmush darajasining kontseptsiyasi ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirish strategiyasi va yo'nalishlari, bosqichlarini belgilab beradi va ma'lum tarixiy xarakterga ega.

https://wordlyknowledge.uz

Sobiq ittifoq davrida kommunizm qurish, «har kimdan qobiliyatiga yarasha, har kimga ehtiyojiga yarasha» tamoyilini amalga oshirish asosiy maqsad sanalar edi. Jamiyatning har bir a'zosini har tomonlama kamol toptirish taraqqiyotning ustuvor yo'nalishi deb belgilangandi. Bu aslida sovet jamiyatining turmush darajasi kontseptsiyasi vazifasini o'tagan. Mazkur kontseptsiya mehnatkashlarning muntazam o'sib borayotgan ehtiyojlarini imkon qadar qondirishni ko'zda tutuvchi ijtimoiyizmning asosiy qonunlarida ham o'z aksini topgan edi.[6]

Umuman olganda, sho'rolar davrida mehnatkashlar ehtiyojlarini qondirish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirildi, ularning daromadlari, ish haqlari o'sib bordi, ammo bu daromadlar salmog'i, ehtiyojlar tarkibi va hajmi xalqaro o'lchovlar bilan taqqoslaganda juda past edi. Shu bilan birga amal qilgan turmush darajasi kontseptsiyasi real bo'lmasdan, ko'proq ideal turmush modelini eslatardi.

Turmush darajasi inson (aholi) hayot faoliyatining ma'lum bir qirrasi to'g'risida tasavvur beradigan ko'rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi. Turmush darajasi to'g'risida batafsil ma'lumot olish uchun aholi daromadlari va ehtiyojlari, iste'mol darajasi va tarkibi, uy-joy, mol-mulk, madaniy-maishiy buyumlar va boshqa imkoniyatlar bilan ta'minlanganlik darajasini chuqur o'rganish lozim.

WORDLY
KNOWLEDGE

[6] Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (darslik) Mehnat, 2004.

https://wordlyknowledge.uz